

8/11-48

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



N.A.SHERMUXAMEDOVA

FALSAFAGA KIRISH

88-48

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.A.SHERMUXAMEDOVA

FALSAFAGA KIRISH

60220500-“Falsafa” (sohalar bo'yicha) bakalavr ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun

DARSLIK

Toshkent
“Fidokor Yosh Avlod”
2024



UO‘K 323 (575.1)

KBK 87.3 (50‘)

Sh 44

**Falsafaga kirish: darslik /N.A.Shermuxeimedova. - Surxondaryo:
Fidokor Yash Avlod, 2023-yil 572-b.**

Darslik oliy ta‘lim tizimi Falsafa bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv adabiyotlari turkumiga kiradi hamda davlat ta‘lim standartlari va namunaviy o‘quv dasturi mazmuniga mos. Darslikda inson dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy muhit, tarixiy sharoitning ta‘siri, arxaiik ong darajasidagi dunyoqarash, dunyoqarashning shakllari va ularning bir-biridan farqi, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati, tarix falsafasi, aksiologiya, praksiologiya, ijtimoiy prognoz hamda globallashuvning falsafiy jihatlari yangilangan tafakkur nuqtai nazaridan keng yoritib berilgan. Bugungi kunda insonning o‘zi va dunyoni tushunishida, ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik jarayonlarga moslashish, og‘ishmay maqsadli faoliyat yuritishda falsafiy tafakkurning roli muhim ahamiyatga ega. Darslik barcha oliy ta‘lim muassasalarida Falsafa bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari va falsafa muammolari bilan shug‘ullanuvchi stajor tadqiqotchi-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, professor o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K 323 (575.1)

KBK 87.3 (50‘)

Sh 44

Mas‘ul muharrir:

Yaxshilikov J.- f.f.d. professor

Taqrizchilar:

Qurbonova L.A. - falsafa fanlari doktori

Nishonova O. - falsafa fanlari doktori, professor

ISBN: 978-9943-4199-5-7

©“Fidokor Yash Avlod” nashriyoti, Toshkent 2023 y.

20 24/65
4
AXBOROT-RESURS
MARKAZI

KIRISH

“Falsafaga kirish” kursidan yozilgan ushbu matnlarning asosiy vazifasi talabani qisqacha bo‘lsa ham falsafa qanday ma’naviy hodisa ekani bilan tanishtirishdan iborat.

Ushbu kursning kerakligi va dolzarbligi alohida e’tiborga loyiq. Zero, O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgunga qadar yakkayu yagona to‘g‘ri ta’limot bo‘lib kelgan va mafkuraning mustahkam poydevori hisoblangan eski falsafa o‘rniga o‘z milliy falsafamizni shakllantirish vazifasini amalga oshirish yo‘lida izlanish olib borar ekanmiz, bu yangi falsafa jamiyatimiz hayoti uchun eng yaroqli ta’limot qanday bo‘lishi kerakligi masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Shu ma’noda falsafa dunyoqarashning barcha shakllari orasidagi o‘rnini va ularga munosabati masalasini, ma’naviyatning boshqa sohalari bilan bog‘lanishlarini aniqlab olish zarurati katta. Ayniqsa, diniy ekstremizm va fundamentalizm taz’iyi mavjud bo‘lib turgan sharoitda dinning mazmuni va yangi falsafaning unga munosabati masalasini, ilmiy-texnika revolyutsiyasi tufayli kelib chiqqan ekologik umumbashariy krizislar sharoitida falsafaning fanga, ilmiy dunyoqarashga munosabati masalasini va umuman, falsafaning boshqa dunyoqarash shakllaridan farqi, afzal va umumiy jihatlari masalasini yyechishga harakat qilmaslik mumkin emas.

Mazkur qisqacha matnlar shunday ehtiyojning natijasi o‘laroq tayyorlandi. Bu kursdan yozilgan birinchi ish sifatida uning muayyan nazariy, mantiqiy va boshqa kamchiliklari bo‘lishi tabiiy.

Shunga qaramasdan talabanning falsafa bilan dastlabki tanishuvi uchun tayanch bo‘ladi degan umidda bu ish iloji boricha zudlik bilan amalga oshirildi. Mustaqillikka erishilgan 14 yil mobaynida xosil bo‘lgan ma’naviy bo‘shliqqa biroz bo‘lsa ham qo‘shib qo‘yish mumkinligi talabanning ham keyingi izlanishlari uchun asos bo‘lishi mumkinligi nazarda tutildi.

Qisqacha matn Falsafa fakultetining Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilib tasdiqlangan bayonnoma № 11 2004 yil 30 iyun.

Ma’sul muharrir: f.f.n. dots. X.P. To‘xtayev

Muallif: f.f.n., dots. Sh.B. Qahhorova

Taqrizchilar: f.f.d. N.A.Shermuhamedova,

F.f.d. G.J.Tulenova

Lotin alifbosiga o‘giran: Rizayeva M.

1 - MAVZU:
DUNYOQARASH, UNING INSON
VA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

REJA:

- 1. Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarash mazmuniga kiradigan muammolar doirasi*
- 2. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi (strukturasi).*
- 3. Dunyoqarashning miqyoslari. Dunyoqarash va mafkura.*

1. Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarash mazmuniga kiradigan muammolar doirasi. Eng qadim zamonlardan to shu bugunga qadar barcha tarixiy davrlarda har qanday fikrlovchi kishini qiziqtirib kelgan shunday masalalar borki ularga javob izlash insonning chin insoniy mohiyatini uning hayvondan keskin farqini belgilaydi. Bularga inson yashab turgan dunyoning mohiyati tabiati qanday? Bu dunyo o'zi qanday vujudga kelgan u nimalardan tashkil topgan? Dunyoda inson qanday o'rinni egallaydi? Insonning mohiyati nimada? Inson hayotida biron ma'no bormi yo yo'kmi? Inson nimaga intilib yashamog'i kerak? Hayot nima? O'lim nima? O'limdan so'ng insonning qanday voqelik kutadi? Yoki hech qanday voqelik bo'lmaydimi? Abadiyat nima, u bormi yo yo'qmi? Agar bor bo'lsa, unga qanday erishish mumkin? Inson tafakkuri nima? Tafakkur yordamida borliqni bilish mumkinmi? Inson tafakkuri o'zini kurshib turgan borliqqa, avvalo ijtimoiy borliqqa qanday munosabatda bo'lmog'i lozim? Ya'ni u tabiatda va jamiyatda o'zini qanday tutmog'i kerak? U zo'ravonlarcha yashashi kerakmi yo qullarchami? Shu kabi masalalar insoniyatning barcha avlodlarni qiziqtirib kelgan abadiy muammolardir. Davrlar o'tishi mobaynida ushbu masalalar doirasi yangi muammolar bilan boyib boravergan.

Masalan: "Kommunizm" davrida jamiyatimiz porloq istiqbolga intilib yashagan edi, endilikda - mustaqillik sharoitida qaysi marraga intilmoq kerak? Umuman, er qurrasidagi hozirgi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotni qanday baholamoq kerak. Hozirgi davr ekologik sharoitini, uning sabab va oqibatlarini baholamoq va u bilan bog'liq qaltis ahvoldan qanday qutilmoq mumkin? Umumbashariy qadriyatlar nimalardan iborat, ularni qanday aniqlash rivojlantirish va himoyalash mumkin? va shu kabilar yangi savollar jumlasiga kiradi.

Hayotda uchraydigan boshqa savollardan farqi shundaki, birinchidan bu savollar shu darajada murakkab va chuqurki, ularga buyuk hikmat egalari necha asrlardan javob izlab kelganlar va yyechimsiz muammolar hamon bor; ikkinchidan, bu savollar bir individ hayotiga emas, butun

insoniyatga taalluqlidir; uchinchidan, agar bu savollarga to'g'ri yechim topilsa, boshqa har qanday savol yechimining kaliti topilgan bo'ladi; to'rtinchidan, shu savollarga o'zini qoniqtiradigan javob topilmagunicha oqil inson o'zini chinakam baxtli deb his eta olmaydi.

Masalan: Buyuk donishmand, olim Umar Xayyom bu haqida shunday yozganlar:

*Men tug'ildim, gardun ko'rdimi foyda,
O'lsam, martabasin oshmog'i qayda?
Hech kim tushuntirib bera olmaydi
Kelib - ketishimning foydasi qayda?*

Shunday masalalarni umumlashtirib, bir so'z bilan dunyoning mohiyati va unda insonning tutgan o'rnini haqidagi yoki, qisqa qilib, dunyoning (shu jumladan inson ichki dunyosining) mohiyati haqidagi masalalar yoki, yana ham qisqacha: dunyoqarash masalalari deyiladi.

Mazkur savollarga berilgan javobdan kishining dunyoqarashi qandayligi ko'rinadi. Dunyoqarash inson ma'naviyatining, uning ichki ruhiy dunyosining muhim, zaruriy qismidir.

2. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi (strukturasi). Tirik mavjudotlarning hech biri o'z hayotining ma'no-mohiyati xususida bosh qotirmaydi. Zero, odam bolasidan bo'lak hech qaysi jonzot o'zining jismoniy ehtiyojlaridan yuqoriroq ko'tarilgan emas. Yuqoridagi savollarni umumlashtirsak, ular dunyoning mohiyati va unda insonning tutgan o'rnini haqidagi masalaga aylanadi va dunyo deganimizda fakat tashqi dunyoni emas, balki ichki, ruhiy dunyoni ham tushunish kerak.

Inson dunyoqarashi o'z-o'zidan (stixiyali) shakllanishi ham mumkin yoki yaxshi tashkil etilgan, maxsus bilimlarni tartib bilan o'zlashtirish yordamida hosil qilinishi ham mumkin. Birinchi holda inson dunyoqarashini atrof-muhit va o'z ruhiy kechinmalari tarbiyalanadi. Ikkinchi holda esa, u o'ziga qadar dunyoqarash masalalarida oldinga surilgan g'oyalarga bilan izchil tanishib borib, ularni tahlil etib, taqqoslab, o'z xulosalarini chiqarib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda inson dunyoqarashining shakllanishida bilimning roli katta. Bilimning o'zi ham murakkab hodisa bo'lib, uning shakllari, darajalari, ko'plab xillari bor. Shakllariga ko'ra bilim ilmiy, diniy, falsafiy, ijtimoiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy, texnikaviy va boshqalarga bo'linadi. Maxsus bilishga ko'ra – matematik, fizika, boshqalar. Darajalariga ko'ra esa, kundalik ratsional (aqliy) va irratsional (mistik-sirli) ilmlar mavjudligi ma'lum. Bundan tashqari, amaliy va nazariy, dunyoviy va ruhiy bilimlar ham ajratiladi. Bilimning har bir shakli, xili yoki darajasi o'z o'rnini, ahamiyatga ega.